



# “Alisher Navoiy va XXI asr”

**11-XALQARO KONFERENSIYASI TO‘PLAMI**

*Toshkent, 2026-yil 9-fevral*

# “Alisher Navo’i and the 21<sup>st</sup> Century”

**11<sup>th</sup> INTERNATIONAL CONFERENCE**

**PROCEEDINGS**

*Tashkent, February 9, 2026*

IL LINGUAGGIO DEGLI UCCELLI  
LISON UT-TAYR



SANDRO  
EDIT

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
O‘zbekiston Yuzuvchilar uyushmasi  
Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy  
nomidagi Adabiyot instituti  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

# **«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»**

**mavzusidagi 11-xalqaro konferensiya  
materiallari**

**2026-yil 9-fevral**

**Toshkent – 2026**

**UO‘K: 821.161.1=512.133**

**KBK: 83.3 (50’)**

**A 51**

**Mas’ul muharrirlar:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**

filologiya fanlari doktori, akademik  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti rektori

**Nurboy Jabborov,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Tahrir hay’ati:**

Boqijon To‘xliyev (O‘zbekiston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Almaz Ulvi Binnatova (Ozarbayjon), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Islam Jemeney (Qozog‘iston), Farhod Rahimiy (Eron), Karomat Mullaxo‘jayeva (O‘zbekiston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog‘iston), Ilyos Ismoilov (O‘zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O‘zbekiston)

Ushbu to‘plamda “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi 11-xalqaro konferensiya materiallari jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o‘rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

narsalar. 4. *Fihiy masalalar ifodasi.*

Kitobning so'nggi bobi “**Navoiyga izdoshlik saodati**” deb nomlangan. Unda Navoiy va Furqat ijodi qiyoslangan. Ma'lumki, Nurboy Jabborov Furqat ijodining yirik tadqiqotchisi, shoir asarlarini nashrlarini amalga oshirgan zahmatkash olim. Shuning uchun ham turli davrning ikki katta shoiri ijodidagi uyg'unliklarni nozik did va o'tkir nigoh bilan topa olgan hamda Furqatni chin ma'noda ulug' mutafakkirning izdoshi sifatida talqin etgan: “Furqat she'riyatida buyuk Navoiy an'alarining munosib davom ettirilishi va yangilanishini quyidagi tamoyillar asosida o'rganish mumkin: 1. Poetik mazmun yangilanishi. 2. Poetik obraz takomili. 3. Poetik janr yangilanishi. 4. Vaznda tatabbu' qilish”[4, 207].

Ustoz-adabiyotshunos Furqat she'riyatidagi uning **munojot-g'azali, munojot-musaddaslari** tahlili orqali rus mustamlaka siyosati, istibdod sharoitida millat hayotining barcha jabhalari asoratga solinganligi, milliy istiqbolga, nurli istiqbolga eltuvchi barcha yo'llar batamom to'silganligini poetik mazmun yangilanishi sifatida baholaydi.

Bobdan “*Navoiy va Abdulla Oripov*” fasli ham o'rin olgan. Undagi fikr-g'oyalar nihoyatda ohorli. XV asrning murakkab sharoitida yashagan mutafakkir ijodkor bilan yangi zamonning donishmand shoiri yaratgan bitiklar o'zaro solishtirilgan.

Umuman olganda, nuktadon adabiyotshunos, o'tkir nigohli matnshunos Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” nomli monografiyasi istiqbol davri navoiyshunosligining yangi sahifasini tashkil etadi. Akademik Sh.Sirojiddinov yozganiday: ushbu kitob “buyuk shoir ijodiyotining faqat zohiriy mazmuni va badiiy shakl xususiyatlarinigina emas, balki teran botiniy ma'no qatlamlarini anglash va anglatish” yo'lidagi muhim va dadil qadam sifatida ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сирожиддинов Ш. Илмий ҳақиқат ёғдуси ёхуд янги давр навоийшунослигининг муҳим ютуғи// Янги Ўзбекистон, 2022 йил 23 апрель, № 81. – Б. 6.
2. Юсупова Д. Буюк мутафаккир ижод оламига яқинлашув// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2022-йил 1-январ / № 1 (4660). – Б. 4.
3. Биннатова Алмаз Улви. Профессор Нурбой Жабборов// Шарқ, 2024, 11 октябрь (Боку)
4. Жабборов Н. Маоний ахлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021.

### **30-40-YILLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI: ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RGANILISHI (Hamid Olimjon tadqiqotlari asosida)**

**Hamroyeva Orzigul Jalolovna**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO"TAU, f. f.d., professor*

**Annotatsiya.** XX asr adabiyotshunosligida Hamid Olimjonning adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi bilan bog'liq kichik tadqiqotlari, maqolalari davr adabiy muhiti va ilmiy muhitining hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada Hamid Olimjonning Alisher Navoiy asarlari tadqiqiga bag'ishlangan maqolalari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** *doston, devon, obraz, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi.*

**Abstract.** In the literature of the 20th century, Hamid Olimjon's small studies and articles related to the history of literature, literary criticism, and literary theory appear as a product of the literary and

scientific environment of the period. The article studies Hamid Olimjon's articles dedicated to the study of the works of Alisher Navoi.

**Keywords:** *epic, divan, history of literature, literary criticism, literary theory.*

Hamid Olimjon adabiy-estetik qarashlari uning sof ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalarida o'z aksini topgan. Uning “O'zbek xalqining ulug' shoiri Navoiy”, “Farhod va Shirin” obrazlari haqida”, “Alisher Navoiy haqida”, “Navoiy va zamonamiz”, “Farhod va Shirin” haqida”, “Muhammad Amin Muqimiy”, “O'zbek xalqining o'lmas shoiri” kabi *adabiyot tarixi*, “Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni”, “Er Torg'in baxt izlagan xalq obrazi”, “Hasan Batrak haqida” nomli *xalq og'zaki ijodi*, “Salom, Pushkin!”, “Tolstoy va o'zbek xalqi”, “Taras Shevchenko”, “Jambul va xalq” kabi *qardosh xalqlar adabiyoti masalalariga* oid maqolalari, Alisher Navoiy ijodiga oid tadqiqotlar, xalq og'zaki ijodiga oid tadqiqotlar uchun material va konspekt, qoralamalari yirik tadqiqotlar uchun debocha vazifasini bajargan[O.Hamroyeva, 2026; 327].

Hamid Olimjon aksariyat maqolalarida Navoiy hayoti, shaxsiyati, ijodi, adabiy faoliyati, asarlarining poetik xususiyatlari, obrazlar tizimi borasida to'xtaladi. Uning “O'zbek xalqining ulug' shoiri Navoiy” maqolasi shoir tavalludining 500 yilligi munosabati bilan yozilgan bo'lib, maqola umumyo'nalishda Navoiy shaxsiyati va adabiy faoliyatining umumiy qirralari bilan tanishtiradi. Hamid Olimjon Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarini tahlilga tortar ekan, bu dostonlar xalq orasida og'izdan og'izga ko'chib “Bahrom”, “Iskandar” kabi dostonlarning yaratilishiga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Shoirning “Xamsa” dostonlari qahramonlariga yuklagan vazifasi borasida to'xtalar ekan, Farhod, Shopur, Shirin, Layli, Majnun obrazlaridagi nomardlik va bevafoqlikka qarshi kurashgan muhabbat, do'stlik, sadoqatning tipik namunasi ekanligiga urg'u beradi. “Xamsa” dostonlari tarkibidagi “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarini Shekspirning “Romeo va Juleta”, Betxovenning kuyga solgan ertagi “Tristan va Izolda”, Pushkinning “Ruslan va Lyudmila”, gurjistonliklarning “Abessalom va Yeteri” ertagi bilan qiyoslaydi, asarlardagi mazmun, ifoda bir-biriga o'xshash ekanligini asoslab beradi[Hamid Olimjon, 1982; 10]. Hamid Olimjon “Alisher Navoiy haqida” maqolasida Navoiyning badiiy tafakkurining asarlarida aks etish prinsiplarini tadqiq etadi. Shoir asarlaridagi mohiyatni ijtimoiy va adabiy hayot bilan hamohang tahlilga tortadi. Xususan, 1470-yilda bek va amaldorlar zulmi va Sulton Husayn Boyqaroning og'ir soliq siyosatiga qarshi xalq qo'zg'alon ko'taradi. Bu qo'zg'aloni bostirishda Alisher Navoiyning xizmati katta edi. Hamid Olimjon Navoiy xalqqa yaqin bo'lishida ana shu jasoratli chiqishning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab, Navoiy “simpatiyasi dehqonlarga qaratilganini” “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan “... *Olam ma'murlig'i alardin, alam ahli masrurlig'i alardin. Har qayon qilsalar, harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot...*” parchalari bilan asoslaydi[Hamid Olimjon, 1982; 18]. U Alisher Navoiy xalqini, yurtini chin ma'noda sevuvchi shoir, adib, olim, tarixchi, davlat arbobi sifatida barcha asarlarida insonparvarlik ruhidagi vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilganini, o'z vatanini sevish va uning muqaddas tuprog'ida o'lish to'g'risidagi qasami

Vatan tarkiini bir nafas aylama,

Yana ranji g'urbat havas aylama...

misralarida aks etganini ta'kidlaydi. Hamid Olimjon Navoiyini “dunyo adabiyotida diapazoni eng keng bo'lgan yozuvchilardan biridir” deb ta'rif beradi. Navoiy qahramonlari: Chinning o'g'li, armanning qizi, Makedoniya botiri, Eronning sadoqatli yigiti edi. Olim Navoiy asarlari orasida “Farhod va Shirin” dostonini shoirning gumanistik fikrlarining eng yuqori bosqichi, mukammal timsolini o'zida aks ettira olgan shohasar sifatida e'tirof etadi.

Olim xulosasiga ko‘ra, dostonidagi Farhod va Xusrav o‘rtasidagi dialog - suhbat “fikriy cho‘qqi” vazifasini bajargan [O.Hamroyeva, 2026; 329].

Hamid Olimjon Navoiy asarlarini syujet imkoniyatlari jihatidan ham tahlil etadi. Xususan, Navoiy dostonlari syujetlari an‘anaviy syujet imkoniyatlari yoki shoir badiiy tafakkurining mahsuli ekanligini “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlari misolida tadqiq etadi. Unga ko‘ra, shoirning bu ikki dostoni eski sharq afsonalari syujetiga asoslanib yaratilgan. Navoiy bu afsonalarning qaysi millat adabiyoti va madaniyatiga mansubligiga qarab emas, shu afsonaga solingan mazmunning qimmatini nuqtayi nazaridan tanlagan.

Hamid Olimjon Alisher Navoiy ijodiy ko‘lami xususida to‘xtalar ekan, shoir devon va dostonlari hajmini fransuz yozuvchisi Balzak, rus yozuvchisi Lev Tolstoy, rus shoiri Pushkin asarlari hajmi bilan qiyoslaydi, shu asosda Navoiyning “she‘r – poeziya bobida jahon adabiyotining eng birinchi o‘rinlarda turishi”ga ishora qiladi.

Hamid Olimjon Navoiy ijodiyotini tahlil qilish asnosida shoir yashagan davrda fors adabiyotining ta‘siri juda katta ekanligini ta‘kidlaydi. Asarlarning fors tilida yozilish an‘anasi Navoiy tomonidan buzilgani, Navoiy turkiy til imkoniyatlarini ochib berishni maqsad qilgani, “tarix bizning buyuk Alisherimizga juda katta vazifa yuklagan”ini faxr bilan e‘tirof etadi. Navoiy o‘z davrida buyuk forsiygo‘y shoir Jomiy bilan juda yaqin munosabatda bo‘lgani, Foniylar taxallusi bilan g‘azal, qasida, ruboiylar yozgani holda turkiy til oldidagi burchini yuqori qo‘ygani “Layli va Majnun” dostonidagi

*Men turkcha boshlabon rivoyat  
Qildim bu fasonani hikoyat.  
Kim shuhrati chun jahonga to‘lg‘ay,  
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay.  
Nevchunki bukun jahonda atrok,  
Ko‘ptur, xushta‘b-u sofi idrok.*

misralari orqali izohlanadi.

Shuni unutmazlik kerakki, XX asr boshlaridagi aksariyat tadqiqotlar ma‘lum ma‘noda tanishtiruv vazifasini bajargani bois ham chuqur tahlil va tadqiqotlardan ko‘ra, umumyo‘nalishdagi tahlillarga asoslangan. Bu holat, ayniqsa, adabiyot tarixiga oid maqolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu maqolalar o‘z davrida bu yo‘nalishdagi, ya‘ni ilmiy tadqiqot yo‘nalishidagi dastlabki tadqiqotlar bo‘lgani bois o‘z davri uchun katta yangilik sifatida qabul qilingan. Xususan, Hamid Olimjon ham aksariyat maqolalarida obyekt sifatida tanlab olingan shoir va uning asarlari borasida birlamchi ma‘lumotlar bilan tanishtiradi. Bu maqolalardagi ma‘lumot, tahlil va tadqiqotlar o‘z davri adabiyotshunosligi uchun juda katta material vazifasini bajargan.

Hamid Olimjonning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid yirik tadqiqotlaridan biri “Navoiy va zamonamiz” yirik hajmli maqolasi bo‘lib, olim “Adabiyotimizning buyuk asos quruvchisi”, “Navoiy va xalq”, “Adolat temasi”, “Muhabbat, do‘stlik”, “Mehnatni kuylash”, “Vatanparvarlik” kabi kichik sarlavhalar ostida shoir asarlarining makon va zamondan tashqari ahamiyati ochiqdigan. Hamid Olimjon har bir sarlavha ostida bir ilmiy muammoni yoritadi. Xususan, “Adabiyotimizning buyuk asos quruvchisi” qismida Navoiy yashagan davr, davrning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli bilan birgalikda forsiy tilning davr adabiy hayotidagi ahamiyatini davrlar silsilasida batafsil tushuntiradi. Navoiy davrida forsiy tilini bilmaganlar pastki tabaqa kishilari sifatida baholangan, shu sabab mamlakat adabiy hayotida ishtirok etmoqchi bo‘lganlar fors tilidan xabardor bo‘lishga majbur ekanliklarini ta‘kidlar ekan, hatto Ozarbayjon shoiri Nizomiyning ham fors tilida yozishga

majbur etilganlar qatorida sanaydi. Shu asosda Navoiyning bu yo‘ldagi jasoratini e‘tirof etadi. Hamid Olimjon tadqiq davomida fikrini asoslash maqsadida Navoiy hayoti va ijodi bo‘yicha ma‘lumot beruvchi bir qancha manbalarga murojaat qiladi. Husayn Boyqaro, Bobur, Vosifiy asarlaridagi ma‘lumotlarga tayanib, shoir shaxsiyatiga obyektiv baho beradi. Maqolaning “Navoiy va xalq” qismida Navoiy va xalq butunligi Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat ul-abror” kabi asarlari tarkibidagi zulm va uning oqibatlari, xalq bilan saroy vakillari munosabatini Navoiyning “muqaddas tilagi” aks etgan

*Odamiy ersang, demagil odami,*

*Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.*

shohbaytlari orqali ifodalab beradi[Hamid Olimjon, 1982; 34]. Hamid Olimjon Navoiy asarlari tadqiqotchisi sifatida shoirning barcha asarlarini turli jihatlariga ko‘ra: shakl va mazmuniy jihatdan tadqiq etadi[O.Hamroyeva, 2026; 329]. U shoir asarlarining hajmi, yozilgan yili va sabablarini ko‘rsatish barobarida eng muhim e‘tiborni asarlarning mohiyatiga, shoir badiiy tafakkurining mahsuli ekanligiga qaratadi.

Hamid Olimjonning “*Farhod va Shirin*” haqida maqolasi, doston tahliliga oid tahlillari muallifning chin ma‘nodagi navoiyshunos ekanligini ko‘rsatadi. Olim dastlab doston sayyor syujetining genezisiga to‘xtaladi, Shirin va Xusrav mojarolari aks etgan afsona dastlab Abulqosim Firdavsiy tomonidan qalamga olingani, Firdavsiy Farhod haqida biror so‘z demagani, Firdavsiydan so‘ng bu mavzuda Nizomiy Ganjaviy fors tilida yangidan go‘zal syujetli asar yaratgani va ilk bora Farhod obrazini olib kirgani bilan bog‘liq ma‘lumotlarni keltiradi. Hamid Olimjon Navoiyga qadar Xusrav va Shirin, Farhod va Shirin munosabati qanday tadrijiy bosqichlarni bosib o‘tganini asarlar va ularning syujet chizig‘i orqali ochib beradi. Olim maqola davomida Navoiy dostonini to‘liq tahlil qiladi. Olimning dostonidagi ramziy ma‘no va obrazlar, ularning asar strukturasiidagi o‘rni borasidagi fikrlari, tahlil xulosalari bugungi kun navoiyshunoslari taqdim etayotgan xulosalar bilan uyg‘un ekanligi Hamid Olimjonning o‘z davrida ijtimoiy va siyosiy tazyiqlardan qo‘rqmay ijodkor asarlariga xolis baho berganini ko‘rsatadi.

Hamid Olimjon Navoiyning “*Farhod va Shirin*” dostoni syujeti tahliliga o‘tishdan oldin Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy dostonlarida Farhodga yuklangan badiiy yuk darajasini qiyoslaydi, Navoiyga qadar bu obraz qanday taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini asoslaydi. Olim Navoiy mashhur

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,*

*Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.*

*Kerak sher oldida ham sheri jangi,*

*Agar sher o‘lmasa, bori palangi*

misralari orqali Navoiyning salaflariga munosabati va kamtarligi borasida alohida to‘xtaladi. Hamid Olimjon tahlil davomida Navoiyning Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyini tanqid qilgan, kamchiliklarini ko‘rsatib bergan baytlariga e‘tibor qaratadi. Olim bu o‘rinda Navoiy haq ekanligiga ishora qilib, Xusrav obrazining salaflari tomonidan ideallashtirishi o‘zini oqlamasligini dalillaydi. Hamid Olimjon sinchi adabiyotshunos sifatida “*Farhod va Shirin*” dostoni syujeti, kompozitsion qurilishi, struktura, obrazlar tizimi borasida batafsil to‘xtaladi. Dostonidagi ramziy obrazlarga yuklangan badiiy vazifani to‘g‘ri anglaydi, Farhod shaxsiyati takomilida bu obrazlarning o‘rni katta ekanligini baytlar tahlili asosida ochib beradi. Shopur va Farhod, Farhod va Shirin, Farhod va Mehinbonu, Farhod va Xusrav munosabatidagi nozik nuqtalar ifodasi shoir poetik mahoratidan dalolat berishi asosli dalillanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурауф Фитрат. Фитрат. Ўзбек адабиёт намуналари. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи О.Ҳамроева). – Т.: Мумтоз сўз. 2013.
2. Содиқ С. Танқидчилигимизнинг машаққатли йўли / Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т., 2006.
3. Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар. 10 жилдлик. 5-жилд. – Т.: Фан. 1982.
4. Hamroyeva O. Adabiyotshunoslik tarixi(O'zbek adabiyotshunosligi tarixi) 1-qism. Darslik. - T.: BookPrint, 2026.
5. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан. 1987.
6. Худойберганов Н., Расулов А. Ўзбек совет адабив танқидчилиги. – Т., 1990. – Б.58.

**ALISHER NAVOIY OBRAZINING FRANSUZ ILMIIY DISKURSIDA SHAKLLANISHI: ADABIYOT, TASAVVUF VA SIYOSIY MADANIYAT KESISHMASIDA**

**Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna,**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Qo'qon universiteti Andijon filiali*  
*e-mail: [nasirdinovayorkinoy@gmail.com](mailto:nasirdinovayorkinoy@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiy haqidagi fransuz ilmiy diskursining shakllanishi resepsiya nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot fransuz navoiyshunosligi Navoiy obrazini tor ma'nodagi “milliy shoir” doirasidan chiqarib, Temuriylar davri Hirotining ko'p tilli adabiy muhitida shakllangan poligraf muallif, Naqshbandiy tasavvufi bilan bog'langan intellektual hamda saroy madaniyati va siyosiy boshqaruv bilan uzviy aloqador arbob sifatida talqin qilishini ko'rsatadi. Maqolada M. Toutant, A. Papas, R. Dor, A. Caiozzo va M. Szuppe maktablariga xos metodologik yondashuvlar tahlil qilinib, ularning adabiy matnni tasavvufiy va siyosiy madaniyat kontekstida o'qish strategiyalari ochib beriladi. O'zbek tadqiqotchisi nuqtayi nazaridan fransuz ilmiy maktabining kuchli tomonlari va Navoiy obrazini “adabiyot–tasavvuf–hokimiyat” uchligi asosida modellashtirish mexanizmlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy; fransuz sharqshunosligi; resepsiya; Naqshbandiya; Xamsa; muammo; Hirot madaniyati; siyosiy madaniyat.*

**Abstract.** The article examines the formation of the French scholarly discourse on Alisher Navoiy (1441/1447–1501) within the framework of reception theory. It demonstrates that French Navoiy studies move beyond a reductive interpretation of Navoiy as merely a “national poet” and instead conceptualize him as a polygraphic author shaped by the multilingual literary milieu of Timurid Herat, an intellectual closely associated with Naqshbandi Sufism, and a figure deeply embedded in court culture and political governance. The article analyses the methodological approaches characteristic of the scholarly traditions represented by M. Toutant, A. Papas, R. Dor, A. Caiozzo, and M. Szuppe, highlighting their strategies for interpreting literary texts within broader Sufi and political-cultural contexts. From the perspective of an Uzbek researcher, the study identifies the strengths of the French scholarly tradition and elucidates the mechanisms through which Navoiy's image is modelled within the triad of “literature – Sufism – power.”

**Keywords:** *Alisher Navā'ī; French scholarship; reception theory; Naqshbandiyya; Khamsa; muammo; Herat; political culture.*

**Kirish.** Alisher Navoiy shaxsiyati va merosi Markaziy Osiyo adabiyati hamda siyosiy-madaniy tarixining markaziy tugunlaridan biri. Shu bois ham Navoiy haqidagi “bilim”lar faqat faktlar yig'indisi emas: u o'zining paydo bo'lish sharoiti, til, metod va institutlari bilan birga mavjud. Bir davrda Navoiy milliy uyg'onish ramzi sifatida o'qiladi, boshqa davrda esa u klassik turkiy-forsiy madaniyatning ichki mexanizmlarini ochadigan “kalit”ga aylanadi.

## MUNDARIJA

<b>I SHO‘BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O‘RNI</b>	
<b>SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAI'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION</b>	
<b>Dr. Kemal YAVUZ ATAMAN.</b> Ali Şir Nevâyî'nin türk halklarına içtimaî-medenî (sosyo-kültürel) ve ebedî mirasi: türk dili	4
<b>Nusratullo JUMAXO‘JA.</b> Hofiz g‘azali va Foniyy tatabbusining qiyosiy tahlili	14
<b>Rashid ZOHIDOV.</b> Navoiyshunoslik metodologiyasiga doir ayrim qarashlar	17
<b>Aftondil ERKINOV.</b> Nava'i's Elevation of Turkic Literature in a Persianate World	23
<b>Alimukhtar MUKHTAROV.</b> The theme of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi in Uzbek Literary Studies in the Researches of Almaz Ulvi Binnatova	26
<b>G‘olib ZIYOD.</b> Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy	32
<b>Ma‘rufjon ASHUROV.</b> Alisher Navoiy va Sharq-G‘arb uyg‘onish tafakkuri mushtarakligi	34
<b>Kosimboy MAMUROV.</b> Bridging classical and modern poetry (Based on Ghazals of Alisher Navai and Sirojiddin Said)	41
<b>Obidjon KARIMOV.</b> Adabiyotshunos Nurboy Jabborov tadqiqotlarida Alisher Navoiy olamining yangicha talqini	45
<b>Azizullah AROL.</b> Alisher Navoiy tafakkurining XXI asr ijtimoiy-ma‘naviy taraqqiyotidagi o‘rni	49
<b>Dilrabo QUVVATOVA.</b> Yangi zamon navoiyshunosligining muhim yutug‘i	53
<b>Orzigul HAMROYEVA.</b> 30-40-yillar adabiyotshunosligi: Alisher Navoiy asarlarining o‘rganilishi ( <i>Hamid Olimjon tadqiqotlari asosida</i> )	58
<b>Yorqinoy NASIRDINOVA.</b> Alisher Navoiy obrazining fransuz ilmiy diskursida shakllanishi: adabiyot, tasavvuf va siyosiy madaniyat kesishmasida	62
<b>Sherali QO‘LDASHEV.</b> Alisher Navoiy merosi – uyg‘ur tadqiqotchilari nigohida	69
<b>Бахтиёр АЛИМДЖАНОВ.</b> “Навои верил в просвещённого монарха”, или стенограмма обсуждения сценария фильма “Навои” в 1946 году	74
<b>Zuhra SAPAYEVA.</b> The role of Alisher Navoi's literary heritage in world civilization and issues of its study	78
<b>Khilola BEKBERGANOVA.</b> Alisher Navoiy's Works in English Translation and Their Study Abroad: Recent Trends, Institutions, and Research Directions	82
<b>Do‘stmurod RAHMONOV.</b> Alisher Navoiy adabiy merosining ijtimoiy xizmat tizimi tarixini o‘rganishda tutgan o‘rni	88
<b>Ikrom BURONOV.</b> “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida aks etgan boshqaruv masalasining badiiy talqini	93
<b>Икбола АБДУЛЛАЕВА.</b> Нравственные идеалы Алишера Навои сквозь призму ценностных ориентиров Антона Чехова	101

<b>Mariya SAIDOVA.</b> Navoi's works as a cultural benchmark in contrastive literary analysis	105
<b>Gulnoza XOLDOROVA.</b> Jahon navoiyshunosligida munozarali mulohazalar	111
<b>Ehsanulla QUWANCH.</b> Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosida fikriy-ma'naviy uyg'unlik	115
<b>Sarvar YARASHOV.</b> Raqamli texnologiyalar davrida Alisher Navoiy falsafiy-axloqiy qarashlarining ahamiyati.	119
<b>Karomiddin JAMAHMATOV.</b> “Majolis un-nafois” asarida chag'oniyon adabiy maktabi vakillari hayoti tavsifi	123
<b>Durdona BOBOXONOVA.</b> So'z maxzanining xazonadori	128
<b>II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI</b>	
<b>SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE</b>	
<b>Nurboy JABBOROV.</b> “Hayrat ul-abror”ga yangicha yondashuv zarurati	133
<b>Iqboloy ADIZOVA.</b> Navoiy ijodidan bahramandlik	141
<b>Farida KARIMOVA.</b> Alisher Navoiy debochalarida adabiy hayot tasviri	146
<b>Dilnavoz YUSUPOVA.</b> Turkiy “Nazm ul-javohir”lar: tahlil va talqin	149
<b>Zeboxon QOBILOVA, Lochinbek AHMADALIYEV.</b> Qo'qon adabiy muhitida g'azal janri takomiliga Alisher Navoiy ijodining ta'siri	158
<b>Salidə Şərifova Şəmməd qızı.</b> Əlişir Nəvainin janr novatorluğu	167
<b>Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV.</b> Navoiy ijodida ilm va amal birligi talqinlari	170
<b>Shavkat HAYITOV.</b> Axloqiy-ma'naviy kamolot yo'lidagi izlanishlar va nasr imkoniyatlari	175
<b>Ma'rifat RAJABOVA.</b> Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida na't an'anasi	183
<b>Gulbahor ASHUROVA.</b> Nizomiy Ganjaviy ijodining turkiy dunyo she'riyatida tutgan o'rni	189
<b>Ilyos ISMOILOV.</b> “Hayrat ul-abror”ning o'rganilish tarixidan	196
<b>Zilola AMONOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida husn va ishq talqini	200
<b>Tozagul DUSANOVA.</b> Alisher Navoiy asarlarida Sayyid Hasan Ardasher obrazi badiiyati	206
<b>Abdulhamid QURBONOV.</b> “Hayrat ul-abror” “basmala”si: mazmun va badiiyat	210
<b>Мусо ОЛИМДЖОНОВ.</b> Хусусиятҳои маъноиву иборасозии калимаи «Абр» дар осори Алишери Навоӣ	217
<b>Obidjon KARIMOV, Sodiqjon IBRAGIMOV, Madina MAMADALIYEVA.</b> Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida komil inson va umr vasfi bayoni	222
<b>Barno ABDURAHMONOVA.</b> “Layli va Majnun” dostonida maktublarning o'rni	226
<b>Zuhra MAMADALIYEVA.</b> Alisher Navoiy dostonlarida darvesh obrazi talqinlari	230
<b>Sherxon QORAYEV.</b> Amir Alisher Navoiyning suhbatdoshlari	236

<b>Olmosxon ABDURAXMONOVA.</b> Navoiy lirikasida Xizr obrazining badiiy talqini	244
<b>Shaxnoza KAXXAROVA.</b> Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” manqibida komil inson talqini	249
<b>Olmos XURRAMOV.</b> Alisher Navoiy g‘azallarida muqobala she‘riy san‘atining qo‘llanishi	261
<b>Ma’sumaxon OBIDJONOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida ilmiy fantastika poetikasiga xos tipologik unsurlar	265
<b>Iroda PARDAYEVA.</b> Alisher Navoiy ijodida adolat konsepsiyasi va uning ma’naviy-ijtimoiy mohiyati	270
<b>Xurshida BAROTOVA.</b> Navoiy asarlarida hunar tushunchasining ma’naviy mohiyati	277
<b>Kamola ULUG‘MURODOVA.</b> “Favoyid ul-kibar”da Layli obrazi talqini	281
<b>Iroda ISHONXANOVA.</b> Aleksandr Semyonovning navoiyshunoslikdagi o‘rni	285
<b>Gulnora UMAROVA.</b> “Ikkinchi bir Navoiyg‘a uchramadik”	289
<b>Ma’rifat ALIMQULOVA.</b> Mamatqul Hazratqulov ijodida Navoiy an‘analari (ishq talqini misolida)	293
<b>Dilorom SHOMURODOVA.</b> “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ayollar obrazi talqinlari	298
<b>Dilobar TURSUNMURODOVA.</b> Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida zuhd konsepsiyasi talqini	302
<b>Farog‘at NASIMOVA.</b> Alisher Navoiyning rindona g‘azallarida tasavvufiy tushunchalar tahlili	307
<b>Sardorbek UMAROV.</b> Futuvvat g‘oyasining Navoiy dostonlaridagi badiiy talqinlari	313
<b>Ibrahim JOVLIYEV.</b> “Alpomish” dostoni va Alisher Navoiyning “Shayx San‘on” qissasi syujetining qiyosiy tahlili	318
<b>Nasiba MEYLIYEVA.</b> Alisher Navoiy ijodida ruboiy janri va uning vazn xususiyatlari	325
<b>Sarvar NISHONOV.</b> Alisher Navoiy va Koshifiy ijodida falsafiy-irfoniy dunyoqarash paradigmasi	330
<b>Adxamxo‘ja ABDULLAXO‘JAYEV.</b> Naqshbandiya ta‘limotining Alisher Navoiy ijodidagi o‘rni va komil inson masalasi	335
<b>Xafiza ABDURAIMOVA.</b> “Hayrat ul-abror” dostonida Iskandar obrazi	341
<b>Dilnoza UMURZAKOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida Nizomiy va Jomiy ta’siri	346
<b>Shaxlo MASUTOVA.</b> Alisher Navoiy forsiy ruboiylarida axloqiy-estetik qarashlar	352
<b>Shodiyor ERGASHEV.</b> Tutdi Attor nazmidin olamni butkul atri ishq...	356
<b>Sadoqatxon O‘LMASALI.</b> Ishq sahosida ikki majnun	360
<b>Mahliyo SATTOROVA.</b> Navoiy dostonlari va xalq kitoblari: janr, kompozitsiya va badiiy uslub farqlari	363
<b>Charos XAMIDOVA.</b> Sahna san‘atida Alisher Navoiy siymosi va ijodining talqini (Samarqand viloyat musiqali drama teatri misolida)	367
<b>Zarnigor ABDIRAUPOVA.</b> Alisher Navoiyning “Hotami Toy” hikoyasini integrativ-metodik yondoshuv asosida o‘qitish	373

<b>Aida ABDUG‘AFUROVA.</b> Poetik an‘ana va zamonaviy ruh: Ulug‘bek Hamdam ijodida Navoiy merosining talqini	376
<b>Madina VAHOBOVA.</b> Alisher Navoiy ijodidagi shoh-u gado obrazining o‘rganilishi xususida	381
<b>III SHO‘BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI</b>	
<b>SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS</b>	
<b>Manzar ABDULXAYROV.</b> Alisher Navoiy asarlari tabdili muammolari	393
<b>Farhad RAHIMI.</b> Senglah ve Nezirali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Ortak Yanlıları Üzerine	397
<b>Gulabza QARSHIYEVA.</b> Alisher Navoiy kulliyotining Guliston saroyi kutubxonasi (Tehron) nusxasi: “Hayrat ul-abror” dostonida matn va tasvir uyg‘unligi	411
<b>Rustamjon JABBOROV.</b> Qojorlar hukmdorligi davrida Alisher Navoiy ijodiy merosiga munosabat	416
<b>Ozoda TOJIBOYEVA.</b> Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar va ularning manbaviy tadqiqi	422
<b>Oysara MADALIYEVA.</b> Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devoni qo‘lyozmalarining tarkibi xususida	427
<b>Munisa MUHAMMADOVA.</b> Nizomiy va Navoiy adabiy merosi kontekstida Hamid Olimjonning navoiyshunoslik qarashlari (arxiv manbalari asosida)	438
<b>Nilufar IBRAGIMOVA.</b> Alisher Navoiy merosining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari: Buxoro muzey-qo‘riqxonasi materiallari asosida	443
<b>IV SHO‘BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O‘RGANILISHI</b>	
<b>SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVAI'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD</b>	
<b>Hamidulla DADABOYEV.</b> “Muhakamat ul-lug‘atayn”da urg‘ulangan so‘zlarning boshqa turkiy manbalarda qo‘llanishi	450
<b>Abdulhay SOBIROV.</b> O‘zbek tili xazinasiga yo‘l Navoiydan boshlanar	454
<b>G‘aybulla BOBOYOROV.</b> “Devonu lug‘atit turk” va “Muhokamat ul lug‘atayn” asarlaridagi ayrim fe‘llardagi o‘xshashlik va farqliliklar	458
<b>Ma‘rufjon DUSTMURODOV.</b> Alisher Navoiy asarlaridagi <i>čärig</i> / <i>čärik</i> harbiy istilohiga doir	463
<b>Nilufar YAKUBOVA.</b> Eski o‘zbek tilidagi arabiy o‘zlashmalar	468
<b>Umida MUMINOVA.</b> Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasining struktur-semantik va funksional xususiyatlari	473
<b>Komiljon ABDULLAYEV.</b> Navoiy shaxsidagi insoniy fazilatlarini o‘rgatishda badiiy asarlardan foydalanish	478
<b>Abdullo UBAYDULLAYEV.</b> “Nasoyimu-l muhabbat” asarida tasavvuf ilmiga oid so‘z va jummalarning stilistik funkcionallashuvi	483
<b>Mavluda OTAJONOVA.</b> Alisher Navoiy merosining jahon adabiyotidagi o‘rni hamda asarlarining tarjima qilingan asosiy tillari	489

<b>Shuhrat HAKIMOV.</b> Alisher Navoiy asarlarining xorijiy tillarga tarjimasini va chet ellarda o'rganilishi.	498
<b>Farrux ABDALIYEV, Dilnoza MUSAYEVA.</b> Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonini interfaol usullar asosida o'qitish metodikasi	503
<b>Oysuluv MUSURMONKULOVA.</b> Ilm maskanida Navoiy ijodi	508
<b>Shohistaxon DADABAYEVA.</b> “Sab’ayi sayyor” dostonini o’rganishda o’quvchilarning ekologik madaniyatini pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish	512
<b>V SHO‘BA. TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI</b>	
<b>SECTION I. ISSUES IN LINGUISTICS AND LITERARY STUDIES</b>	
<b>Dilafruz MAHKAMOVA.</b> Isajon Sul-tonning “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va milliy o’zlik talqini	517
<b>Surayyo DAVRONOVA.</b> Hofiz Xorazmiy ijodida muvoza-na san’atining qo’llanilishi	521
<b>Iroda JAMOLIDDINOVA.</b> Badiiy uslubda “qat’iyat” konseptining voqelanishi	523
<b>Matluba TUROBOVA.</b> Elektron lug’at platformalari uchun leksik bazani shakllantirish va tizimlashtirishning lingvistik mezonlari	527
<b>Sanobar MUXAMEDXODJAYEVA.</b> Mahmud Zamaxshariyning hikmatlarida diniy manbalardan iqtibos keltirish usullari	529
<b>Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA.</b> Ohangaron shahri shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	531
<b>Gulbahor NASRIDINOVA.</b> Omon Muxtorning tarixiy romanlarida badiiy eksperiment xususiyatlari	535
<b>Marhabo BEGIMQULOVA.</b> O’zbek va ingliz tillarida landshaft birliklarining lingvomadaniy talqini	538
<b>Zulayho IBROHIMOVA.</b> O’zbek va fransuz romanlarida davr ijtimoiy-ma’naviy ruhiyatining ekzistensial talqini (A.Kamyuning “Vabo” va X.Do’stmuhammadning “Bozor” romanlari misolida)	542
<b>Sevinch MANNATOVA.</b> “Hayrat ul-abror” dostonida frazeologik iboralarning semantik tahlili	545
<b>Gulbahor UMAROVA.</b> Alisher Navoiyning manoqib asarlaridagi tibbiyotga oid istilohlar xususida	548
<b>Zafar XURRAMOV.</b> Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunida tutgan o’rni	551
<b>Dilovar SAFARALIYEV.</b> Navoiy adabiy merosining jahon madaniyatidagi o’rni	553
<b>TEZISLAR</b>	
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK. TILSHUNOSLIK</b>	
<b>Abjalova Manzura.</b> Alisher Navoiy mualliflik korpusi – zamonaviy ta’lim texnologiyasi	556
<b>Asqarova Zulayxo.</b> Alisher Navoiy va Ogahiy tarixiy-badiiy asarlarining qiyosiy tahlili	559
<b>Akramova Dilnoza.</b> Alisher Navoiyning “dayr aro mug’bachchadin...” g’azali tahlili	561

<b>Abduraimov Dilshodjon.</b> Navoiy “Layli va Majnun” dostonida tasavvufiy qarashlar	564
<b>Azimov Xurshid.</b> Alisher Navoiy asarlarining manbalari va matniy tadqiqi	567
<b>Abdurahmonov Muhiddin.</b> Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunida tutgan o’rni	569
<b>Abdug’aniyev Javohirmirzo.</b> Navoiy nasriy merosida siyosiy nutq va diplomatik leksika	571
<b>Amonova Shoira.</b> “Farhod va Shirin” hamda “Vomiq va Azro” dostonlarida ayollar obrazlari haqida	573
<b>Almardonova Aziza.</b> Alisher Navoiy g’azallarida dunyoning badiiy manzarasi	575
<b>Atoyeva Shamsiya.</b> “Majolis un-nafois” tazkirasida davr adabiy muhitiga katta hissa qo’shgan ijodkorlar talqini	577
<b>Avazova Sevinch.</b> Angliyadagi ilk turkiy qo’lyozmalar katalogi	580
<b>Abdumannapova Shohsanam.</b> Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qofiya va mazmun munosabati	581
<b>Abdumutalov Behruzbek.</b> Alisher Navoiy ijodida turkiy adabiy tafakkurning jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasi	586
<b>Абдуллаев Бехзод.</b> Финансовая грамотность в эпоху Алишера Навои и её актуальность для формирования человеческого капитала в XXI веке	589
<b>Bozorova Muattar.</b> Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” va Boburning “Boburnoma” asarlarida Muhammad Solih tasviri	593
<b>Beysenov Kenjabay.</b> Alisher Navoiy merosining jahon tamaddunida tutgan o’rni	597
<b>Gulliyeva Gulandon.</b> Alisher Navoiy davrida qissa - dostonchilik an’analari	599
<b>Djurabayeva Zamira.</b> Navoiy asarlarida fitonimlarning qo’llanilishi	603
<b>Jumaniyazova Intizor.</b> Alisher Navoiy ijodida qanoat g’oyasi va uning ma’naviy-axloqiy mohiyati	605
<b>Jumayev Zuxriddin, Mavlonova Sevinch.</b> The Translation of Alisher Navoi’s Works into Foreign Languages and Their Pedagogical Value for Advanced Language Learners	608
<b>Jumaniyazova Muxabbat.</b> Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida umuminsoniy g’oyalar va insoniy fazilatlar talqini	611
<b>Ibotova Madina.</b> Alisher Navoiy g’azaliyotida “ruh – qush, tana – qafas” metaforasining badiiy-falsafiy talqini	615
<b>Musurmanov Nodirbek.</b> Alisher Navoiy ijtimoiy falsafiy qarashlarining shaxs kamolotidagi o’rni	618
<b>Mamayusupov Ma’murjon.</b> Alisher Navoiy dostonlari va Ahmad Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostoni haqida ayrim mulohazalar	622
<b>Musayeva Azadaxan.</b> Navoiy asarlarida qo’llanilgan fitonimlarning leksik-semantik tahlili	624
<b>Nosirov Is’hoqxon.</b> Ma’no va hayrat.	627
<b>Mahmudova Diana.</b> Alisher Navoiyning harfiy san’atlar yaratish mahorati (“lom” harfi misolida)	630
<b>Murodillayev Nurali.</b> Ilohiy yaqinlik va insoniy begonalik	633

<b>Naraliyeva Shaxlo.</b> Navoiyning «Saba’i sayyor» asarida ranglar sinonimiyasi: lingvopoetik va leksik-semantik tahlil	635
<b>Egamberdiyev Shavkatbek.</b> Alisher Navoiy asarlarida iqtisodiy mafkura va jamiyatdagi moliyaviy munosabatlarning tasviri	638
<b>Kamolova Majnuniso.</b> Majnunning uzlati	642
<b>Sodiqjon Ibragimov, Madina Mamadaliyeva, Dilnozaxon Dadajonova.</b> Alisher Navoiy lirik ijodida badiiy san’atlar	646
<b>Toshpulatova Marjona.</b> Adabiy ta’limda interpretatsion faoliyatni rivojlantirish: idrok–tahlil–talqin bosqichlari	648
<b>Tursunqulova Yulduz</b> “Sab’ayi sayyor” dostonidagi muallif va qahramonlarining tush tasvirida ruhiyat masalasi	652
<b>Saparova Muhsinaxon.</b> Alisher Navoiyning “Mezonu-l-avzon” asariga asos bo’lgan risolalar xususida	656
<b>Siddiqova Naimaxon.</b> Alisher Navoiy hikmatlarini maktab yoshidagi bolalarga o’rgatish	658
<b>Safarova Nargiza.</b> Alisher Navoiy merosining tarixiy tarjima jarayoni va jahonda o’rganilishi	661
<b>Ташкенбаева Диёра.</b> Творческое наследие Алишера Навои в зарубежной научной традиции: история изучения и методологические подходы	663
<b>Ташкенбаев Таштемир.</b> Творческое наследие Алишера Навои как духовно-нравственный ресурс формирования гармонично развитой личности современной молодежи Узбекистана: методология научного исследования	666
<b>G’ulomova Nargiza.</b> Navoiy g’azallaridagi poremilogik xususiyatni o’rganishning ta’limiy-ijtimoiy ahamiyati	670
<b>Rayimbekova Zulfiniso, Sultanmuradova Nozima.</b> Umumta’lim maktablarida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarini o’qitishning metodik asoslari	674
<b>Kamoldinova Gavharoy.</b> Navoiyning Sul-ton Mas’ud Mirzo Shohiy ijodiga ta’siri	677
<b>Кодиркулов Азизжон.</b> Алишер Навои – великое перо узбекской литературы	679
<b>Кодиркулова Ситора.</b> Александр Големба и традиция художественного перевода: восток и запад	683
<b>Omonova Barchinoy.</b> Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub " asaridagi tanbehtar va fazilatlar ta’rifi	685
<b>Ne’matova O’g’iloy.</b> Alisher Navoiy va Haydar Xorazmiy ijodida so’z qudrati	687
<b>Fozilova Gulmehra.</b> O’zbek tilshunosligi va adabiyotida frazeologik birliklarning nazariy va badiiy talqini: Navoiydan Ulug’Bek Hamdamgacha	690
<b>Sohiba Umarova.</b> Xorazmlik sohibi devonlar	694
<b>Hidoyatova Robiya.</b> The works translation of Alisher Navai and their usage in foreign countries	698
<b>Xomidova Mahfuzaxon.</b> “Hayrat ul-abror” dostonidagi ayrim allyuziv nomlar xususida	701

<b>Xo'jayeva Shoiraxon.</b> Alisher Navoiy ijodida dev obrazi va uning ramziy-Semantik qatlamlari (“Farhod va Shirin” dostoni misolida)	704
<b>Xolmurodov Islomiddin.</b> Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror” dostonidagi hikoyatlarda obraz poetikasi	707
<b>Xamidova Nilufar.</b> Navoiy g'azallarida hayot va insoniy qadriyatlar	710
<b>Xurramova Dilobar.</b> Alisher Navoiyning tilshunoslikka qo'shgan hissasi	714
<b>Xudayberdiyeva Shahnoza.</b> Bulbul hikoyati genezisi	717
<b>Rahmonova Matluba.</b> O'quvchilarni Alisher Navoiy g'azallarini oson tahlil qilishga o'rgatish	719
<b>Rajabov Faxriddin.</b> Alisher Navoiy ijodiga badiiy munosabat haqida (karmanalik shoir Odil Hotam ijodi misolida)	723
<b>Shukurova Zilola.</b> Navoiy ijodidan ta'sirlangan Komiy	727
<b>Shukurova Zilola.</b> Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida mir Alisher Navoiy talqini	729
<b>Kiryigitova Nigora.</b> Erkin Vohidov ijodida Navoiy adabiy merosining o'rni	732
<b>Umurzakova Dilnoza.</b> Alisher Navoiy ijodida Nizomiy va Jomiy ta'siri	734
<b>Umurzaqov Dorobjon, O'ktamjonova Komilaxon.</b> Alisher Navoiy asarlarida “gunoh” konseptining lingvo-madaniy va semantik-pragmatik talqini	740
<b>Sharafuddinova Madinaxon.</b> Alisher Navoiy ijodining jahon adabiy jarayonidagi o'rni	741



**ILMIY NASHR**

# **«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»**

**mavzusidagi 11-xalqaro konferensiya  
materiallari**

**2026-yil 9-fevral**

**Toshkent - 2026**



